

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

CHDPU rektori

G.I.Muxamedov

2023 yil

**NOGIRON VA JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN
ABITURIENTLARNING**

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**
(Kunduzgi, kechki va sirtqi bo'lim uchun)

**TASVIRIY SAN'AT (rangtasvir) va CHIZMACHILIK
fanlari**

**60111200 – “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi”
bakalavriat ta'lif yo'nalishi uchun**

CHIRCHIQ – 2023

Dastur Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 yil 26 06 dagi 19-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

CHDPU "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dotsent X.E.Sultanov

CHDPU "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi mudiri p.f.f.d., dotsent v.b. B.B.Ko'kiyev

CHDPU "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi professori Baymetov B.B.

CHDPU "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi dotsent v.b. Muratov X.X.

CHDPU "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi dotsent v.b. Achilov N.N.

Taqrizchilar: TDPU "Tasviriy san'at" kafedrasi dotsenti Xalilov R.Sh.

TDPU "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi dotsenti Xalimov M.K.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

**60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi
uchun nogiron va jismoniy imkoniyati cheklangan abituriyentlarning tasviriy
san’at (rangtasvir) va chizmachilik
fanlaridan kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish mezoni va dasturi**

I. Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-ton qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 261-ton qaroriga muvofiq ushbu dastur ishlab chiqilgan.

“60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi kasb-hunar maktablari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi tasviriy san’at va chizmachilik fanlari dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. 60111200 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda tasviriy san’at va muhandislik grafikasining asosi bo‘lgan **rangtasvir** va **chizmachilik** fanlaridan amaliy ish bajarib, o‘zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

II. Fanning maqsad va vazifalari

60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchilar tayyorlash bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning tasviriy san’at va chizmachilik sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy, grafik ishlar bajaradilar:

1. Tasviriy san’at (Rangtasvir). Natyurmort qo‘yilmasidagi buyumlarning o‘zaro nisbati, havo perspektivasi va rang qonuniyatları, kompozitsiya tuzilishi, yorug‘, soya, tus tushunchalari negizida uy ro‘zg‘or buyumlari, meva, sabzavotlar gipsli geometrik jismlar sidirg‘a va rangli mato fonida o‘ziga qarab qog‘oz formatida natyurmot tasvirini akvarel bo‘yog‘idan foydalanim amaliy ish bajarish malakalarini aniqlashdir.

2. Chizmachilik. Tarkibida tutashma elementlari mavjud bo‘lgan detal chizmasini chizish, buyumning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi

proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalamda amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.

III. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

1. Abituriyentdan rangtasvir fanidan natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirishi, ufq chizig'ini to'g'ri topishi, predmetlarning hajmi, o'zaro nisbatini to'g'ri topishi, perspektiva qonuniga rioya qilishi, soya, yorug', refleksni to'g'ri topishi, akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanishi, naturadagi buyum hajmlarini to'g'ri aks ettirishi, buyumlardagi soya va yorug'larni to'g'ri aniqlashi, buyumlarning fakturasini (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topishi, qo'yilgan vazifa to'liq bajarishi talab etiladi.

2. Abituriyentdan chizmachilik fanidan tutashma markazini, tutashma nuqtalarini to'g'ri topishi, tutashmani silliq ravon tutashtirishi, berilgan ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirishi, masshtabni to'g'ri tanlashi, yetishmovchi proyeksiyani to'g'ri topishi, qirqimlarni to'g'ri bajarishi, aksonometrik proyeksiyani qirqimlari bilan to'g'ri bajara olishi, chizmalarda chiziq turlariga, o'lchamlar qo'yishda qoidaga rioya qilishi, chizmalarni qog'ozga to'g'ri joylashtira bilishi va ishni sifatli bajarishi talab etiladi.

Abituriyent jadval bo'yicha belgilangan kunda har bir fanga 3 astronomik soat (180 daqiqa) vaqt davomida grafik ish bajaradi. Tasviriy san'at (rangrasvir) hamda chizmachilik fanlari bo'yicha bajariladigan ish qog'ozining o'lchami A3 formatda bo'ladi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Tasviriy san'at (rangrasvir) fanidan bajarilgan ishga 10 tadan savol, chizmachilikdan 13 ta savol qo'yiladi va bu savollarga sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo'yadilar. Har bir fan bo'yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

IV. Ijodiy imtihon o'tkazish tartibi

60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kasbiy ijodiy imtixon иккита fan doirsida o'tkaziladi, har bir fan bo'yicha abituriyent bilimi va ijodiy mahoratiga alohida ball qo'yiladi. To'plagan ball natijalari umumlashtiriladi va ballar ketma-ketligida qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

Abituriyent jadval asosida belgilangan kunda, har bir fandan 3 astronomik soat vaqt davomida **rangtasvir** fani bo'yicha layoqatini aniqlash uchun abituriyent tomonidan bajarilgan ijodiy ish (natyurmort) tarzida imzolangan xolda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

Tasviriy san'at nazariyasi asosida natyurmortning o'zaro nisbati, havo perspektivasi qonuniyatları, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari

negizida gipsli geometrik jism, uy-ro‘zg‘or buyumlari, meva va sabzavotlar rangli mato fonida o‘ziga qarab tasviri rangda bajariladi.

“Chizmachilik” fani bo‘yicha layoqatini aniqlash uchun abiturient tomonidan bajarilgan grafik ish (natyurmort) tarzida imzolangan xolda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 20-30 nafar abituriyentlardan iborat bo‘lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruhlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar rangtasvir fanidan molbert va planshetlar bilan jihozlangan xonalarida hamda chizmachilik fanidan stol-stul bilan jihozlangan xonalarida o‘tkaziladi.

Mazkur yo‘nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo‘yiladigan maksimal ball – **156** balni tashkil etadi,

- 1. Rangtasvir - 78,0 ball**
- 2. Chizmachilik - 78,0 ball**

V. Kasbiy (ijodiy) imtihon mazmuni

RANGTASVIR

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1	Natyurmort qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirilgan	0-7 gacha
2	Ufq chizig‘i to‘g‘ri topilgan	0-7 gacha
3	Predmetlarning o‘zaro nisbatlari va tayanch nuqtalari to‘g‘ri topilgan	0-8 gacha
4	Perspektiva qonuniyatlariga to‘g‘ri rioya qilingan	0-8 gacha
5	Buyumlarning tekisligi to‘g‘ri topilgan	0-8 gacha
6	Buyumlardagi soya - yorug‘ va reflekslar to‘g‘ri topilgan	0-8 gacha
7	Akvarel bo‘yog‘i texnikasidan to‘g‘ri foydalananilgan	0-8 gacha
8	Naturadagi buyumlarning hajmlari to‘g‘ri aks ettirilgan	0-8 gacha
9	Buyumlarning fakturasi (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topilgan	0-8 gacha
10	Qo‘yilgan vazifa to‘liq bajarilgan	0-8 gacha

Rangtasvir bo‘yicha abiturientlarning to‘plashi mumkin bo‘lgan maksimal ballarning umumiyligi miqdori – **78,0 ball**

CHIZMACHILIK

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Tutashma markazi to‘g‘ri topilgan	0-6 gacha
2	Tutashma nuqtalari to‘g‘ri topilgan	0-6 gacha
3	Tutashma silliq ravon tutashtirilgan	0-6 gacha
4	Tutashma bajarishdagi geometrik yasashlarning to‘g‘ri tatbiq qilinganligi va u chizmada saqlanganligi	0-6 gacha
5	Berilgan ikki proyeksiya to‘g‘ri ko‘chirilgan, masshtab to‘g‘ri tanlangan	0-6 gacha
6	Yetishmovchi proyeksiya to‘g‘ri topilgan	0-6 gacha
7	Qirqimlar to‘g‘ri bajarilgan	0-6 gacha
8	Aksonometrik proyeksiya to‘g‘ri boshlangan	0-6 gacha
9	Aksonometrik proyeksiya tugallangan	0-6 gacha
10	Aksonometriyada qirqim to‘g‘ri bajarilgan	0-6 gacha
11	Chizmalarda chiziq turlariga rioya qilingan	0-6 gacha
12	O‘lchamlar qo‘yishda qoidaga rioya qilingan	0-6 gacha
13	Chizmalar chizma qog‘oziga to‘g‘ri joylashtirilgan va sifatli bajarilgan	0-6 gacha

Chizmachilik bo‘yicha abituriyentlarning to‘plashi mumkin bo‘lgan maksimal ball - **78,0 ball**

VI. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.